


58. Metr, detsimetr, santimetr

Yondosh mavzu:
arxitektura

uzunlik, o'lchov
santimetr, detsimetr



1. Uzunligi 10 cm bo'lgan o'lchov yordamida parta uzunligini, doska uzunligini, xonaning uzunligini o'lchang. Ushbu o'lchov bilan qanday uzunlikni o'lchash noqulay?

Katta narsalarni o'lchashda standart uzunlik birligi – metrdan foydalaniladi.

1 metr = 10 detsimetr = 100 santimetr



Belgilanishi: 1 m.

2. Detsimetrlarda, santimetrlarda, metrlarda ifodalang.

$$3 \text{ m} = \square \text{ dm}$$

$$2 \text{ m} = \square \text{ cm}$$

$$400 \text{ cm} = \square \text{ m}$$

$$5 \text{ m} = \square \text{ dm}$$

$$6 \text{ m} = \square \text{ cm}$$

$$700 \text{ cm} = \square \text{ m}$$

$$8 \text{ m} = \square \text{ dm}$$

$$9 \text{ m} = \square \text{ cm}$$

$$300 \text{ cm} = \square \text{ m}$$

3. Taqqoslang.

$$70 \text{ cm} \square 70 \text{ dm}$$

$$6 \text{ m} \square 6 \text{ dm}$$

$$30 \text{ dm} \square 300 \text{ cm}$$

$$30 \text{ m} \square 200 \text{ cm}$$

$$800 \text{ cm} \square 800 \text{ m}$$

$$90 \text{ dm} \square 500 \text{ cm}$$

4. Xivadagi Kaltaminor minorasining balandligi 29 m, ammo quruvchilarning rejasiga ko'ra, uning balandligi 70 m bo'lishi kerak edi. Minoraning necha metri qurilmagan?





5. Mustaqillik maydonidagi favvoralar to'g'ri to'rtburchak shaklida. Ulardan birining uzunligi 88 m, kengligi 34 m qisqa. Ushbu favvora atrofida yoritkich o'rnatish uchun necha metr nurli tasma kerak bo'ladi?



6. Binolarning balandligi metrlarda o'lchanadi. Tenglamalarni yeching va ushbu minoralarning balandligini bilib oling.

Toshkent teleminorasi	Buxoroning Shuxov minorasi
$900 - (x + 518) = 7$	$287 + (719 - y) = 966$



7. Piza minorasining tepasi to'g'ri holatdan 4 m 80 cm masofaga og'gan. Bu detsimetrlarda qancha?



8. Ifodalarni hisoblang, ularning qiymatlarini o'sish tartibida qo'yib chiqing va arxitektorni qadimda qanday atashganini bilib oling.

O	$356 + 328$	R	$612 + 158$	M	$975 - 867$
E	$854 - 658$	'	$876 - 549$	M	$415 + 115$



9. Ifodalang:

detsimetrlarda: 9 m, 60 cm, 2 m, 70 cm;

dantimetrlarda: 7 dm, 4 m, 3 dm, 2 m;

metrlarda: 500 cm, 30 dm, 600 cm, 80 dm.



10. Birinchi ko'p qavatli uyda 246 xonadon, ikkinchisida birinchisiga nisbatan 58 ta kam, uchinchisida esa 42 ta ko'p xonadon bor. Bu uchta uyda nechta xonadon bor?